

О‘ZBEKISTONNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT TARMOG‘INING STATISTIK TAHLILI VA KELGUSIDAGI SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH

TKTIYF o‘qituvchisi

Berdikulova Sevinch Toxir qizi

Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Ismoilova Intizor Mansurbek qizi

Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Olimova Guli Bobomurod qizi

Annotatsiya: maqolada mamlakatimizning tashqi savdo aylanmasi, eksport va import tovarlar hajmi ko‘rsatkichlarini tahlil qilamiz. To‘lov balansi holatini statistik ma‘lumotlar bilan ifodalash ko‘zda tutilgan. Jahondagi o‘rnimiz, shuningdek, kelgusidagi istiqbolli strategik yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi.

Kirish so‘zlar: tovar ulushi, eksport, import, tashqi iqtisodiy aloqalar, innovatsion texnologiyalar, xususiy tadbirkorlik subyektlari, bozor iqtisodiyoti, to‘lov balansi.

Kirish. Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining hududida doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga haqlidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:
tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining tengligi;
savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdorlik;
tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga moddiy va nomoddiy ne‘matlarni hamda ularga bo‘lgan huquqlarni qo‘yish bilan bog‘liq tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari harakatlarining yig‘indisi O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati deb e‘tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ma'lumotlarni analiz va sintez qilish usullaridan foydalanilgan. Statistik ma'lumotlar joriy va basis yillardagi bo'yicha tahlil qilingan. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya metodologiyasi ham qo'llanilgan.

Tahlil va muhokamalar natijasi. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi hajmi yillik 63528,6 mln AQSH dollarini tashkil qiladi. Viloyatlar kesimida jadval ma'lumotlaridan tahlil qilamiz.

Tashqi savdo aylanmasi hajmi (yillik)¹

Viloyatlar	2021 (mln AQSH dollar)	2022 (mln AQSH dollar)	2023 (mln AQSH dollar)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	649.2	599.3	535.2
Andijon viloyati	3165.4	4282.5	5047.9
Buxoro viloyati	1180.9	1224.8	1212.3
Jizzax viloyati	531.2	688.2	1432.2
Qashqadaryo viloyati	565.7	545.4	737.8
Navoiy viloyati	1168.5	1230.3	1331.3
Namangan viloyati	1091.0	1279.7	1404.9
Samarqand viloyati	1920.5	2365.5	2892.4
Surxondaryo viloyati	442.5	372.7	327.9
Sirdaryo viloyati	667.2	813.6	861.6
Toshkent viloyati	5311.3	5584.5	5783.0
Farg'ona viloyati	1835.5	2064.0	1979.3
Xorazm viloyati	517.2	787.3	881.1
Toshkent shahri	16583.1	19609.0	25186.3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Toshkent shahri eng yuqori tashqi savdo aylanmasiga ega. Eng past ko'rsatkich Surxondaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Tovarlar eksporti O'zbekistonda 2022-yil bo'yicha 15275.9 mln.AQSH dollari tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu 19229.1 mln.AQSH dollarga yetgan.

Tovarlar importi 2022-yilda 28220.3 mln.AQSH dollar bo'lsa, 2023-yil bu ko'rsatkich 35574.8 mln.AQSH dollari tashkil qilgan. 2023 yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida Xitoy va Rossiyaning ulushi 38 foizga yetdi, qo'shni mamlakatlarning ulushi esa 17 foizdan 13 foizgacha qisqardi. Yil davomida oltinsiz eksport atigi 4,5 foizga o'sdi va mutlaq rekord miqdorda – 8,2 mlrd dollarlik oltin

¹ https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_2358.pdf

sotildi. Gaz eksporti qariyb ikki barobarga qisqardi. 2023 yilda ham Xitoy O‘zbekistonning eng yirik savdo sherigi bo‘ldi. Hisobot davrida o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 13,7 mlrd dollarga yetgan. Bu – respublika umumiy tashqi savdo aylanmasi hajmining 21,9 foizini tashkil qiladi.

Shuningdek, tashqi savdo aylanmasining salmoqli qismi Rossiya (15,8 foiz), Qozog‘iston (7 foiz), Turkiya (5 foiz) va Janubiy Koreya (3,7 foiz) bilan qayd etilgan.

2023 yil O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan top-10 davlat:

- Xitoy – 13,7 mlrd dollar;
- Rossiya – 9,8 mlrd dollar;
- Qozog‘iston – 4,4 mlrd dollar;
- Turkiya – 3 mlrd dollar;
- Koreya – 2,3 mlrd dollar;
- Turkmaniston – 1,1 mlrd dollar;
- Germaniya – 1 mlrd dollar;
- Fransiya – 984 mln dollar;
- Qirg‘iziston – 953 mln dollar;
- Afg‘oniston – 867 mln dollar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor davlatdan faqatgina uchta mamlakat – Afg‘oniston, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Qolgan 17 ta davlat bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolgan.

2023 yilda oltinsiz eksport atigi 4,5 foizga o‘sib, 16,2 mlrd dollarni tashkil etgan. Ya’ni yanvar-dekabr oyidagi eksport hajmining 23,8 foizga oshishi bevosita oltin sotishning ko‘paygani bilan bog‘liq. Mazkur davrda 8,2 mlrd dollarlik oltin eksport qilingan. Bu – mutlaq rekord ko‘rsatkichdir. Shuningdek, umumiy eksport tarkibida sanoat mahsulotlarining ulushi 22,2 foizdan 16,6 foizgacha qisqargan. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar ulushi 8,3 foizdan 7,3 foizgacha, kimyoviy vositalarning ulushi esa 6,6 foizdan 5,4 foizgacha kamaygan.

O‘z navbatida, oltin eksportining ulushi 20,8 foizdan 33,4 foizgacha, mashina va transport uskunalarining ulushi 4,9 foizdan 5,3 foizga oshgan.

2023 yilda Xitoyga amalga oshirilgan eksport hajmi 6,5 foizga kamaygan. Turkiyaga mahsulot sotish 24 foizga, Qozog‘istonga eksport hajmi 2,5 foizga qisqargan. O‘z navbatida, Rossiyaga eksport hajmi 5 foizga, Afg‘onistonga 13,3 foizga oshgan.

Import tarkibida eng katta ulush – mashinalar va transport asbob-uskunalari (39,2 foiz), sanoat tovarlari (16,6 foiz) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (12,8 foiz) hisobiga to‘g‘ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi: tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish, valyuta bilan tartibga solish, soliq bilan tartibga solish, tarif va notarif tartibga solish, O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarini qo‘llash, tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan, miqdoriy cheklovlar o‘rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o‘rnatish.

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta‘minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga import tovarlarning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi. Toshkent shahrining 2023- yil yanvar-dekabr holatida tashqi savdo aylanmasi Respublikaning tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 38,8 % ni tashkil etadi. Toshkent shahrining 2023- yil yanvar-dekabr holatida eksport hajmi Respublika eksport hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 20,3 % ni tashkil etadi. Toshkent shahrining 2023- yil yanvar-dekabr holatida import hajmi Respublika import hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 50,6 % ni tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizning barcha hududlarida sanoat korxonalarini tashkil etish, ularni qo‘llab-quvvatlash, mahsulotlarini eksportga yo‘naltirish va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotning barqaror sur‘atlar bilan o‘sishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga oid qabul qilingan farmon va qarorlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatini yanada kengaytirishi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etishi yo‘lida keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati izchil yuksalib bormoqda. “Made in Uzbekistan” yorlig‘i tushirilgan mahsulotlar jahon bozorida keng o‘rin egallamoqda. Xususiy tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlarini eksport qilishni qo‘llab-quvvatlash, ularga har tomonlama ko‘mak berish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat tarmog‘ida tovar ulushi hajmini oshirish, import mahsulotlaridan eksport mahsulotlarini ko‘paytirish kabi islohotlar mamlakatimiz bozorida ijobiy

pozitsiyani yaratadi. Bozor iqtisodiyoti o'z navbatida tovarlar va xizmatlarning ko'p va raqobatchil bo'lishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.V.Vaxabov. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma, 708 sahifa, "Iqtisod-Moliya".
2. <https://lex.uz/docs/-67345>
3. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>